

## ZAMONAVIY YAXLIT YENG BICHIMIDAGI AYOLLAR KO'YLAGINI KONSTRUKTSIYASINI QURISH

*Farg'ona Politehnika Instituti*

**G.A. Mirboboyeva.**

**Annotasiya,** *Ushbu maqolada ayollar ko'ylaklarini turli xil bichimlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, bundan tashqari ayollar yaxlit bichimli ko'ylagini model konstruksiyasini qurishni to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan*

**Tayanch so'zlar:** *Ayollar ko'ylagi, furnituralar, bichim, ijodiy g'oyalar, koketka, fason, kant, yeng o'mizi.*

**Аннотация.** *В этой статье представлена информация о различных фасонах женских платьев а также информация о том как сделать модель женского платья*

**Ключевые слова :** *Женская одежда, фурнитура, дизайн, креативные идеи, кокетка, мода, край, рукав.*

**Annotation.** *This article provides information about various styles of womens dresses as well as information on how to make a model of a women's dress*

**Key words:** *Womens clothing, accessories, design, creative ideas, yoke, fashion, hem, sleeve.*

Ayollar ko'ylaklari turli hil uslubda va turlicha matolardan tikiladi. Nozik didli ayollarimizga ko'ylak yaratayotgan dizaynerlar o'ta e'tiborlik bilan yaratishi lozim. Bir biriga o'xshamasligi har bir detali bilan ajralib turishi kerak. Matolar bilan bezaklari uyg'unlashgan holda uzunligi maksi, mini, angilizkiy uzunlikdagi liboslar urfda. Ayollar ko'ylaklarida qora, oq, ko'k, yashil va har xil turdagi kombinatsiya kuzatiladi. [1]. Furnituralarga kichik hajmdagi tugmalar, bezak vishifka tasmalar, belbog', aplekatsiya va kashtalar misol bo'ladi. Hozirgi davrda yangi uslublarning ko'plab va tez suratlarda dunyo yuzini ko'rishi nafaqat moda tendentsiyalarini kuzatish, balki baholashga ham imkon bo'lmay qolyabdi. Zamonaviy modani rangli ekstravazasiz va yorqin iz qoldirmasdan tasavvur qilish mumkin emas. 2023 yilda ayollar ko'ylagi eng qiziqarli ijodiy g'oyalar va jasur eksperimentlarning amalga oshirilishiga aylandi. [2].

Bu yaratgan modelimda yoz mavsumlari uchun mo'ljallangan ayollar ko'ylagi jatka matosidan tikilgan bo'lib, silueti kengaygan, yahlit yengli bichimda. Ko'ylak oldi taqilmasi markaziy, 3 ta tugma fason sifatida qo'yilgan, oldi qismi uchburchak koketkali bo'lib koketka va ko'ylak tanasi orasiga varoqlar bilan ishlov berilgan hamda oldi qismiga uyg'unlashgan holatda yeng qismi ham varoqlar bilan ishlov berilgan. Ko'ylak ort bo'lagi sal kengaygan siluetli hech qanday chok mavjud emas. Bo'yin o'yindisiga kant bilan ishlov berilgan.



1-rasm Ayollar yaxlit bichimli ko'ylagi

- |                                        |                                   |
|----------------------------------------|-----------------------------------|
| 1. Bo'yinning yarim aylanasi-18;       | 2. Ko'krakning yarim aylanasi-46; |
| 3. Ko'krak ostining yarim aylanasi-41; | 4. Belning yarim aylanasi-36;     |
| 5. Orqaning belgacha uzunligi-37;      | 6. Ko'ylak uzunligi-100;          |
| 7. Yelka kengligi-13;                  | 8. Yeng uzunligi-16.              |

Andoza chizmasini chizish.

To'g'ri burchak chizib, uchiga A harfi qo'yiladi.

Yeng o'mizining chuqurligi. A nuqtadan pastga 21,3 sm (ko'krak yarim aylanasi  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 6 sm qo'shiladi, ya'ni  $46:3+6=21,3$  sm) o'lchab, G nuqta qo'yiladi. G nuqtadan o'nga ixtiyoriy gorizontal chiziq tortiladi.


Bel chizig'i. A nuqtadan pastga 37 sm (orqaning beligacha uzunligi) o'lchab, T nuqta qo'yiladi. T nuqtadan o'ngga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq chiziladi.

Son chizig'i. T nuqtadan pastga 18 sm (barcha razmerlar uchun) o'lchab B nuqta qo'yiladi. B nuqtadan o'nga ixtiyoriy uzunlikda gorizontal chiziq tortiladi.

Etak chizig'i. A nuqtadan pastga 100 sm uzunlikda (ko'ylakning uzunligi) chiziq tushurib uchiga H nuqta qoyiladi. H nuqtadan o'nga ixtiyoriy uzunlik gorizontal chiziq tortiladi.

Orqaning kengligi. G nuqtadan o'ngga 18,3 sm (ko'krak yarim aylanasi  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 3 sm qo'shiladi, ya'ni  $46:3+3=18,3$  sm o'lchab,  $G_1$  nuqta qo'yiladi.  $G_1$  nuqtadan yuqoriga gorizontal chiziq bilan kesishguncha tik chiziq chiqarilib chiziqlar kesishgan nuqta H bilan belgilanadi.

Yeng o'mizining kengligi.  $G_1$  nuqtadan o'ngga 11,5 sm (ko'krak yarim aylanasi  $\frac{1}{4}$  qismi, ya'ni  $46:4=11,5$  sm) o'lchab  $G_2$  nuqta qo'yiladi.  $G_2$  nuqtadan yuqoriga ixtiyoriy uzunlikda tik chiziq chiqarilib uning chiziq bilan kesishgan nuqtasi P1 bilan belgilanadi.



2-rasm Ayollar yaxlit bichimli ko'ylagini asos konstruksiyasi.

Ko'ylakning ko'krak chizig'i bo'yicha kengligi. G nuqtadan o'nga 50 sm (ko'krak yarim aylanasiga barcha razmerlar uchun 4 sm qo'shiladi, ya'ni  $46+4=50$  sm) o'lchab  $G_3$  nuqta qo'yiladi  $G_3$  nuqta orqali vertikal chiziq o'tkazilib, uning pastki gorizantal chiziq ya'ni etak chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $H_1$  bilan bel chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $T_1$  bilan, son chizig'i bilan kesishgan nuqtasi esa  $B_1$  bilan belgilanadi.

Oldi lifning balandligi.  $G_3$  nuqtadan yuqoriga 24 sm (ko'krak yarim aylanasining  $1/2$  qismiga barcha razmerlar uchun 1 sm qo'shiladi, ya'ni  $46:2+1=24$ ) o'lchab SH nuqta qo'yiladi. SH nuqtadan chapga vertical chiziq bilan kesishguncha gorizantal chiziq chizilib, chiziqlar kesishgan nuqta  $P_2$  bilan belgilanadi.

Yon chiziq.  $G_1$  nuqt bilan  $G_2$  nuqta orasidagi chiziq teng ikki qismga bo'linadi, bo'lish nuqtasi  $G_4$  bilan belgilanadi.  $G_4$  nuqtadan pastga etak chizig'igacha to'g'ri chiziq tushurilib, uning etak chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $H_2$  bilan, bel chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $T_2$  bilan, son chizig'i bilan kesishgan nuqtasi  $B_2$  bilan belgilanadi. . [1].

#### KO'YLAKNING ORQASINI CHIZISH.

Yoqa o'mizi. A nuqtadan 6,5 sm (bo'yin yarim aylanasining  $1/3$  qismiga barcha razmerlar uchun 0,5 qo'shiladi ya'ni  $18:3+0,5=6,5$  sm) o'lchab shu yerga 6,5 raqami qo'yiladi. Va 6,5 nuqtasidan yuqoriga 2.5 sm o'lchab 2,5 nuqtasi qo'yiladi. Nuqtalar botiq egri chiziq orqali tutashtiriladi.

Yelka chizig'i. 2,5 nuqtasidan o'nga P nuqta orqali 14,5 sm (yelka kengligiga vitochka solish yoki tikish uchun 1,5 sm qo'shiladi ya'ni  $13+1,5=14,5$  sm) uzunlikda chiziq chiziladi va uchiga P3 qo'yiladi. Yelka chizig'i teng ikki qismga bo'linadi. Bo'lish nuqtasi 0,5 nuqtaga tutashtiriladi.

Yengning yuqori chizig'i. P<sub>3</sub> nuqta G<sub>3</sub> nuqtaga tutashtiriladi. P<sub>3</sub> nuqtadan o'ngga 16 sm uzunlikda yengning o'lchangan uzunligiga teng uzunlikda chiziq tortilib uchiga 16 raqami qo'yiladi.

Yeng o'mizining qiyaligi va yon chok. G<sub>4</sub> nuqtadan 2 sm pastga G<sub>5</sub> nuqta qo'yiladi. T<sub>2</sub> nuqtadan 1 sm chapga 1 raqami qo'yiladi. H<sub>2</sub> nuqtadan 3 sm o'ngga 3 raqami yoziladi. G<sub>5</sub>, 1, B<sub>5</sub> va 3 nuqtalar tutashtiriladi, natijada yon chok tushadigan chiziq hosil bo'ladi.

Yengning kesigi va yeng uchi. G<sub>1</sub> nuqta G<sub>5</sub> nuqtaga tutashtiriladi. G<sub>5</sub> nuqtadan o'ngga G<sub>1</sub> nuqta yo'nalishida 5 sm o'lchab, 5 raqami qo'iladi. Natijada yeng kesigi hosil bo'ladi. G<sub>5</sub> nuqta 16 nuqtasiga tutashtirilsa, shunda yeng uchi hosil bo'ladi.

Etak chizig'i. Pastki gorizontal chiziqdagi 3 nuqtasidan 1 sm yuqoriga 1 raqami qo'yiladi. Bu nuqta H nuqtaga rasimdagidek tutashtiriladi va etak chizig'i hosil bo'ladi.

Bel chizig'idagi vitochka. GG<sub>1</sub> chizig'i teng ikki qismga bo'linadi. Bo'lish nuqtasidan 1 sm chapga 1 raqami qo'yiladi. 1 nuqtasidan pastga, son chizig'iga vertikal chiziq tushurib, bu chiziqlar kesishgan nuqta B<sub>3</sub> bilan belgilanadi. Vertikal chiziq bilan bel chizig'i kesishgan nuqtadan 1 sm chapga va 1 sm o'nga 1 raqamlar qo'yiladi. GG<sub>1</sub> chizig'idagi 1 nuqtasidagi 4 sm pastga 4 raqami, B<sub>3</sub> nuqtadan esa 3 sm yuqoriga 3 raqami qo'yiladi. 4,1,3 va 1 nuqtalari o'zaro ketma- ket tutashtiriladi.

Ko'ylakning oldini chizish.

Yelka o'mizi. SH nuqtadan chapga 6,5 sm (bo'yin yarim aylanasi  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 0,5 sm qo'shiladi, ya'ni  $18:3+0,5=6,5$  sm) o'lchab SH<sub>1</sub> nuqta qo'yiladi. SH nuqtadan pastga 7,5 sm (bo'yin yarim aylanasi  $\frac{1}{3}$  qismiga barcha razmerlar uchun 1,5 sm qo'shiladi. Ya'ni  $18:3+1,5=7,5$  sm) o'lchab, bu nuqta SH<sub>2</sub> bilan belgilanadi. SH<sub>1</sub> nuqta SH<sub>2</sub> nuqtaga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi va punktir chiziq teng ikkiga bo'linadi bo'lish nuqtasidan 2 sm chapga 2 raqami qo'yiladi. SH<sub>1</sub> nuqta 2 nuqtasi orqali SH<sub>2</sub> nuqtaga botiq egri chiziq yordamida tutashtiriladi, bu yoqa o'mizi bo'ladi.

Yelkaning yoqa o'mizidan yelka vitochkasigacha bo'lgan kengligi. SH<sub>1</sub> nuqtadan 4 sm chapga P<sub>4</sub> nuqta qo'yiladi.

Yelka vitochkasi. P<sub>4</sub> nuqtadan pastga GG<sub>3</sub> chizig'igacha punktir chiziq tushuriladi. Uning GG<sub>3</sub> chizig'i bilan kesishgan nuqtasidan 1 sm o'nga B nuqta qo'yiladi. B nuqta P<sub>4</sub> nuqtaga tutashtiriladi. P<sub>4</sub> nuqta PG<sub>1</sub> chizig'idagi yuqori bo'lish nuqtasiga punktir chiziq yordamida tutashtiriladi. P<sub>4</sub> nuqtadan chapga punktir chiziq bo'yicha 5 sm (vitochkaning kengligi) o'lchab B<sub>1</sub> nuqta qo'yiladi (ko'krakning yarim aylanasi ko'krak ostining yarim aylanasi ayriladi, ya'ni  $46-41=5$  sm). B<sub>1</sub> nuqta B nuqtaga tutashtiriladi. So'ngra B nuqtadan yuqoriga P<sub>4</sub> nuqta yo'nalishida BB<sub>1</sub> chizig'iga teng keladigan chiziq chiqariladi. Vitochkaning har ikkala chizig'i bir biriga teng bo'lishi kerak. B<sub>2</sub> nuqta SH<sub>1</sub> nuqtaga tutashtiriladi.

Yelkaning vitochkadan yenggacha bo'lgan kengligi.  $P_2$  nuqtadan pastga 5 sm o'lchab 5 raqami qo'yiladi.  $B_1$  nuqtadan chapga 5 nuqtasi orqali 9 sm uzunlikda (yelka kengligidan 4 sm ayriladi, ya'ni yelkaning yoqa o'mizidan yelka vitochkasigacha bo'lgan kengligi : $13-4=9$  sm) chiziq tortib uchiga  $P_5$  nuqta qo'yiladi.

Yeng ustki qismining uzunligi.  $GG_1$  chizig'i teng ikki qismga bo'linadi. Bo'lish nuqtasidan 3 sm chapga 3 raqami qo'yiladi. 3 nuqtasi  $P_5$  nuqtaga tutashtiriladi.  $P_5$  nuqtadan chapga qiya chiziq bo'yicha 16 sm (yengning o'lchangan uzunligi) o'lchab 16 raqami qo'yiladi.

Yeng o'mizining qiyaligi va yon chok.  $G_4$  nuqtadan 2 sm pastga  $G_5$  nuqta qo'yiladi.  $T_2$  nuqtadan 1 sm o'ngga 1 raqami,  $H_2$  nuqtadan 4 sm chapga 4 raqami qo'yiladi.  $G_5$  nuqta 4 nuqtasiga 1,  $B_2$  nuqtalar orqali tutashtiriladi.

Yengning kesigi va yeng uchi.  $G_5$  nuqta  $G_2$  nuqtaga tutashtiriladi.  $G_5$  nuqtadan o'ngga  $G_2$  nuqta yo'nalishida 5 sm o'lchab, 5 raqami qo'yiladi.  $G_2G_5$  chizig'i yeng kesigi hisoblanadi.

Bel chizig'i.  $T_1$  nuqtadan 1 sm pastga 1 raqami qo'yiladi. Bu nuqta yon chiziqdagi 1 nuqtasiga tutashtiriladi.

Son chizig'i.  $B_1$  nuqtadan 1 sm pastga 1 raqami qo'yiladi. 1 nuqtasi  $B_2$  nuqtaga tutashtiriladi.

Etak chizig'i.  $H_1$  nuqtadan 1 sm pastga 4 nuqtasidan esa 1 sm yuqoriga 1 raqami qo'yiladi. 1 nuqtasi 1 nuqtasiga tutashtiriladi. [3].

Bel chizig'idagi yon vitochka. B nuqtadan pastga son chizig'i bilan kesishguncha punktir chiziq tushiriladi. Chiziqlar kesishgan nuqta  $B_4$  bilan belgilanadi. Punktir chiziqning bel chizig'i bilan kesishgan nuqtasidan o'ngga va chapga 1 raqamlar qo'yiladi. B nuqtadan pastga 4 sm o'lchab 4 raqami qo'yiladi.  $B_4$  nuqtadan 3 sm yuqoriga 3 raqami qo'yiladi. 4,1,3 va 1 nuqtalar o'zaro tutashtiriladi.

Oldi koketkasi.  $G_3$  nuqtadan pastga 8 sm tushib 8 raqami qo'yiladi va yuqori yelka qismidagi 4 raqami bilan tutashtiriladi.

Hulosa. Ayollar kiyimlarini konstruksiyalashda turli xil bichimlardan iborat bo'ladi. Shu bichimlar ichida hozirgi kunda qulayligi bilan aloxida ajralib turadigan yaxlit bichimli ayollar kiyimlarini konstruksiyalashni oddiy usulda yechishni o'rganib chiqdik

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.. Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2020). Product-an object of artistic thinking. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1172-1176.

2. Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). Retro style in modeling women's clothing. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 372-376.

3. Abdusattorovna, M. G., & Nasimjanovna, N. N. (2022). Technological features of the work of a double-knitting machine. International Journal of Advance Scientific Research, 2(06), 22-34.

4. Abdusattorovna, M. G. (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. Open Access Repository, 4(03), 246-251.

5. Abdusattorovna, M. G. (2023). Theoretical justification for improving the design of special clothing to optimize its design. *Open Access Repository*, 4(03), 246-251.
6. Maxmudjon, T., Abdusattorovna, M. G., & Qosimjonovna, U. N. (2021). The Relationships between Constructive and Technological Solutions in the Creation of Clothes. *Central asian journal of arts and design*, 2(11), 55-59.
7. Ulugboboyeva, M. M. (2021). Creation of new modern clothes from national fabrics. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(11), 63-68.
8. Maripdjanovna, U. B. M., & Valiyevich, X. J. (2021). Research and analysis of physical and mechanical properties of the national fabric-adras. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 77-88.
9. Maripdjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 550-553.
10. Ulug'boboyeva M. Development of the Concept of a Collection of Dresses from Khonatlas Fabric // *Eurasian Journal of Engineering and Technology*. – 2022. – T. 10. – C. 121-124.
11. Samiyevna, T. S., & Raxmatovna, M. S. (2022). The importance of creating embroidery patterns from the methods of artistic decoration in the light industry. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 3(5), 1-10.
12. Tursumatova, S. (2022). Selection of sewing machines and establishment of manufactured assortments. *American Journal of Applied Science and Technology*, 2(06), 42-46.
13. Sodiqovna A. M., Abduqodirovna B. R. N. NOTIPAVIY QOMATLI AYYOLLARNING O'LCHAMLARI VA TANA TURLARINING FARQLANISHI // *Science and innovation*. – 2022. – T. 1. – №. A3. – C. 284-288.
14. Sodiqovna, A. M. (2022). Notipaviy qomatli ayollarga reglan bichimli yeng turlarini avfzalligi. *PEDAGOGS jurnali*, 13(1), 130-133.
15. Sodiqovna, A. M., Abdurashidovna, E. R., & Uktamovna, A. D. (2021). Study of female abnormal body types and analysis. *Journal INX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 333-335.
16. Yusupova, D., & Butayeva, N. (2022). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR UCHUN KIYIM ASSORTIMENTIGA ISTE'MOLCHILARNING EXTIYOJLARINI O 'RGANISH. *Science and innovation*, 1(A7), 496-500.
17. Sovridinova, M. H., & Yusupova, D. U. (2021). KATTA YOSHDAGI AYOLLAR KIYIMLARIGA BO'LGAN TALABLARNI ANIQLASH. *Евразийский журнал академических исследований*, 1(9), 675-679.
18. Yusupova, D. U., & Sovridinova, M. X. (2020, November). O 'ZBEKISTONDA KEKSAYGAN AYOLLAR UCHUN KIYIM-KECHAK DIZAYNIDAGI HOZIRGI DAVLAT VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI. In *Archive of Conferences* (Vol. 9, No. 1, pp. 190-192).

19. Samieva, T. S., Mirkomilova, R. M., & Obidovich, K. V. (2021). The professional pedagogical activity in modern education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 275-277.
20. Maxmudjon, T., & Abdurakhimova, M. (2022). THE METHODS OF WELDING DETAILS OF SEWING ITEMS FROM THERMOPLASTIC MATERIALS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 125-132.
21. Xoshimova, M. X. Q., & Tursunova, X. S. Q. (2021). Kombinatsiyalashgan yangli ayollar paltoining konstruktiv shakllari tahlili. *Scientific progress*, 2(8), 622-626.
22. Xoshimova, M. X. Q., & Yuldasheva, D. B. Q. (2021). IPAK MATOLARINING TURLARI VA ULARNING TAHLILI. *Scientific progress*, 2(8), 627-633.
23. Muhammadrasulov, S. X., Xoshimova, M. X., & Mominov, B. B. (2023). STUDY OF PHYSICAL AND MECHANICAL PROPERTIES OF SILK FABRICS AND THEIR ANALYSIS. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(3), 28-34.
24. Рустамова, М. Ф. К., & Рустамов, М. А. У. (2022). Изготовление современных искусственных нитей для пошива одежды на производстве АО «Ферганаазот». *Science and Education*, 3(5), 584-590.
25. Jaxongirova, X. D. (2022). ZAMONAVIY KIYIM TIKISHDA TRANSFORMATSIYA USLUBLARINING O'RNINI. *Uzbek Scholar Journal*, 7, 112-117.
26. Tursumatova, S., Tursunov, D., & Isroilova, N. (2023). Research on the Production of Special Clothing for Car Repair Workers, Taking into Account Human Ergonomic Characteristics. *Eurasian Research Bulletin*, 17, 204-209.
27. Kh, Q. D., Nigmatova, F. U., Yusupova, D., & Sovriddinova, M. (2021). Muslim Clothing As A Sign Of A Separate Subculture Of Older Women. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 56-64.
28. Рахмонова, М. М., & Урмонова, Н. К. (2021). Основные Требования, История И Факты О Детской Одежде. *Central Asian Journal Of Arts And Design*, 2(12), 74-78.
29. Рахманова М. М., Анорбоев А. МОДА САНОАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 555-556.
30. Davronbek, T. (2023). CLO3D YORDAMIDA AYOLLAR QOMATLARINI HAMDA UNDA KIYIM O'RNASHUVINI TAHLIL QILISH ORQALI KIYIM DIZAYNINI ISHLAB CHIQUISH. *Scientific Impulse*, 1(8), 599-603.
31. Odinabonu, R. (2022). PALTOBOP QALIN GAZLAMALARNING SUV SHIMISH XOSSALARINING TAHLILI. *Scientific Impulse*, 1(4), 1626-1630.
32. Валиев, Г. Н. (2018). Аналитическая зависимость распределения давления крестовой намотки на ее основание вдоль оси паковки при сложных формах намотки и методика ее определения. *Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности*, (3), 106-113.
33. Мирзахонов, М., & Валиев, Г. Н. (2020). Разработка новой структуры платьечно-костюмной ткани из натурального шелка Development of a new structure of

dress-costume fabrik made of natural silk. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной (pp. 261-264).

34. Хомидов, В. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2018). Устройство для испытания натяжных приборов текстильных машин. In Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2018) (pp. 89-92).

35. Hamidullo o'g'li T. N., Kamolovich B. E. IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 648-653.

36. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

37. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.

38. Nozimjonovna, O. I., Madaminovich, K. K., Umarjanovna, R. S., & Maqsud o'g, E. M. M. (2022). ANALYSIS OF PHYSICOMECHANICAL PARAMETERS OF NEW PATTERNED KNITTED FABRICS OBTAINED ON KNITTING MACHINES WITH TWO CIRCULAR NEEDLES. International Journal of Advance Scientific Research, 2(09), 1-9.

39. Hamidullo o'g'li, T. N. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537

40. Валиев, Г. Н. (2016). Пространственное распределение угла подъёма витка намотки мотальной паковки. In Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (Инновации-2016) (pp. 36-40).

41. Орипов, Ж. И., & Валиев, Г. Н. (2020). Исследование качественных характеристик шёлка-сырца механического и автоматического кокономотания. Физика волокнистых материалов: структура, свойства, наукоемкие технологии и материалы (SMARTEX), (1), 84-87.

42. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И. О., & Турдиев, М. (2020). Новая технология подготовки нитей основы к ткачеству при выработке тканей крепдешин. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 110-летию со дня рождения профессора АГ Севостьянова (pp. 147-151).

43. Орипов, Ж. И. О., Валиев, Г. Н., & Турдиев, М. (2021). Исследование влияния способа производства шёлка-сырца на его качественные характеристики. In Сборник научных трудов Международной научной конференции, посвященной 150-летию со дня рождения профессора НА Васильева (pp. 63-67).

44. Валиев, Г. Н., Орипов, Ж. И., & Турдиев, М. (2019). Улучшение качества намотки креповых нитей на крутильных машинах. Актуальная наука, (11), 9-12.

45. Nozimjonovna, O. I. (2022). Constructive analysis of modern circular needle knitting machines. American Journal of Applied Science and Technology, 2(06), 75-79